

ALISHER NAVOIY “BADOE’ UL-BIDOYA” DEVONIDA ODAM ALAYHISSALOM
OBRAZI TALQINI.

X.Холмуродов

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti f.f.f.d(PhD)

<tel:93.291.21.66>

I.Olimjonov

4-bosqich talabasi

Аннотация: *Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiyning “Badoe” ul-bidoya” devonida ilohiy obraz-timsollar taqini o’ziga xos bir poetik muammo sifatida tadqiq etiladi. Unda masala tadqiqi shoir devonida Odam alayhissalom obrazi orqali ifodalangan g’oyaviy-badiiy manzaralar tahlili misolida ochib beriladi. Shu bilan mumtoz she’riyatda obraz-timsollarning o’ziga xos qonuniyatlari va badiiy-estetik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.*

Калит сўзлар: *Alisher Navoiy she’riyati, mumtoz an’ana, obraz-timsol, g’oyaviy-badiiy manzara, poetic funktsiya, adabiy qonuniyat, taiqin.*

Abstract:

Key words:

Alisher Navoiy Sharq Uyg’onish davri adabiyotining ulkan namoyondasi hisoblanadi. U Sharq adabiyoti an’analarini o’zining xilma-xil asarlarida betakror suratda namoyon etdi, so’z san’ati bilan jahoniy ifodalarni yuzaga keltirdi. Sharq mumtoz she’riyati badiiy-estetik, adabiy-falsafiy, poetik jihatlardan nihoyatda jozibador va betakror hodisadir. Unda rang-barang obraz-timsollar ifodasi badiiy tafakkurni uzoq tarixiy va ilohiy-bashariy qarashlar zanjiri bilan bog’laydi. Ular badiiy matn tarkibida xilma-xil poetik funktsiyalar bajarish bilan birga mumtoz adabiyotning mazmun-mohiyati va ifoda olamiga muqaddas tuyg’ular tavsifi bilan ziynat beradi. Bu jihatdan o’zbek adabiyotining buyuk namoyondasi Alisher Navoiy ijodi nafaqat Sharq, balki jahon adabiyotida alohida hodisa hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, o’rta asarlar Sharq mumtoz adabiyoti g’oyaviy-badiiy taraqqiyotida muqaddas manbalar: Qur’oni Karim, Hadisi Sharif katta rol o’ynaydi. Ayniqsa, ushbu manbalar asosini tashkil etgan payg’ambar siymolar tarixi va faoliyati mumtoz adabiyot vakillari adabiy merosidan chuqur o’rin egallagandir. Ma’lumotlarga ko’ra, Qur’oni Karimning to’rtidan bir qismini payg’ambarlar qissalari tashkil etadi. Shu asosda Sharq, xususan, turkiy-o’zbek adabiyotida alohida payg’ambarlarga bag’ishlangan qissalar turkumi o’ziga xos an’ana sifatida shakllangan bo’lib, Alisher Navoiy ijodida

ham payg‘ambar siymolar, adabiy qahramonlar va tarixiy shaxslar obrazlariga murojaat etish an‘anasi eng mahsuldor jarayondir.

Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonida 13 ta payg‘ambar siymo obrazi tilga olinadi. Shundan Odam alayhissalom obraziga 8 marotaba murojat etadi.

Alisher Navoiy she‘riyatida lirik qahramon kechinmalari tasvirida rangin ramziy-majoziy ifodalarni yuzaga chiqaradi. Jumladan, “Badoe‘ul-bidoya”da Odam Safiyulloh alayhissalom farishtalar sajda etgan siymo sifatida tavsiflanadi.

*Odamiyliq ko‘rguzub qilding parivashlarni qul,
Odam uldurkim, maloyik oni masjud ayladi ⁹.*

Shoir “Sen odamiylik qilib farishtalarni o‘zingga qul qilding, chunki Odam – farishtalar sajda qilgan zotdir”, – deydi. Bu o‘rinda Odam Safiy qissasiga murojaat etiladi. Unda dastlab odamiylik sharaflanadi, shoir nazdida odamiylik Odamning xokisorlik sifati, u tufayli Odamga barcha farishtalar bosh egadilar, va faqat takabburlik rad etiladi. Shuni nazarda tutgan Alisher Navoiy odamning azizligini uning odamiyligida deb biladi. Shoir fikricha, odamiylik – xokisorlik fazilatidir, shu bois odamiylik qoshida ta‘zim qilish kerak.

Shoir “Badoe‘-ul bidoya” devonida Odam obrazini ishq mavzusi orqali tasvirlaydi. Unda shoir oshiq obrazini Odamga, oshiqlar guruhini odam avlodiga o‘xshatadi.

*Odam o‘lmishmenki, ishq ahli manga avlod erur,
Yo‘qsa, yoshdin mencha kimning yuz sari atfoli bor¹⁰.*

Shoir “men Odamman, oshiqlar odam avlodidirlar, bo‘lmasa oshiqlar shuncha ko‘z yoshi to‘kadirarmi?” - deydi. Bunda Sharq mutafakkirlari, xususan, Alisher Navoiy qarashlarida insoniyat bir vujuddan yaratilganligi darj etiladi. Bu vujud Odam va Havvodir. Shoir talqinicha, u badiiy obrazgina emas, balki odamiyzod taqdiri ifodasi hamdir. Alisher Navoiy o‘z she‘riyatida Odam timsoli va qissasi bilan bog‘liq nihoyatda sermazmun poetik manzaralar yaratadi. Bu bilan shoir barcha xalqlarni birdamlik va ezgulikka da‘vat etadi.

Alisher Navoiyning so‘nggi dostoni “Lison ut-tayr” (“Qush tili”)da o‘n besh baytdan iborat “Odam Safiy alayhissalom hikoyati” deb nomlangan hikoyat mavjud:

*“Xayli insonning otosi Bulbashar,
Kim oni xalq etti Hayyi dodgar.
Boshiga qo‘ydi hidoyat afsarin,*

⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Бадойиъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987 йил, 770 бет.

¹⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Бадойиъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987 йил, 167 бет.

Tojiga tikdi nubuvvat gavharin.
 Qildilar topqoch bu yanglig' izzini joh,
 Tufrog'in xayli maloyik sajdagoh.
 Avji gardun xoki roh o'ldi anga,
 Bog'i jannat jilvagoh o'ldi anga.
 Bu sifat sofiyvashi oliy hasab,
 Kim Safiy keldi anga Haqdin laqab.
 Chunki taqdir etdi Hayyi zuljalol,
 Jurmu isyon birla bo'ldi tirahol.
 Oncha rif'at birla ul masjidluq,
 Ketti-yu bo'ldi ishi mardudluq.
 Ko'ksiga rad ranjasin etkurdilar,
 Ravzai jannatdin oni surdilar.
 Yuzqarolig'lar anga aylab nasib,
 Tushdi Hindiston savodida g'arib.
 Qarnlar hijronda erdi ashkrez,
 Solib ohu nolasidin rustaxez.
 Joni o'rtangan zamon andoqki xas,
 Tavba ul holiga bo'ldi choraras.
 Bog'i raxmatdin yana esdi nasim,
 Bo'ldi yuz ming ranju mehnatdin salim.
 Tavbasig'a dastgir o'ldi qabul,
 Ayladi hurmat harimida nuzul.
 Ondoq elga etsa bu bandu kushod,
 Sen kim o'lg'aysen za'ifi nomurod?
 Tavba qilg'il dog'i behbudingg'a yet,
 Yo'lga aylab azm, maqsudingg'a yet"¹¹.

(Hikoyatni mazmuni: "Odam – insoniyatning otasidir, Uni Alloh go'zal qilib, benuqson yaratdi. Boshiga to'g'ri yo'l tojini kiydirdi, tojiga payg'ambarlik gavharini qadadi. Uni aziz va muhtaram qildi, tuprog'i farishtalarga sajdagoh bo'ldi. Falakning tuprog'i yo'l bo'ldi, unga jannat bog'i joy bo'ldi. Oliy nasabli, sifatli bo'ldi, Alloh unga tanlangan deb nom berdi. Shuncha martaba berildi, biroq u gunoh qildi. Shuncha aziz edi, rad etildi, jannatdan haydaldi. Yuzi qaro bo'lib, Hindiston o'lkasiga tushdi. Uzoq muddat ayriliqda, ko'z yoshi to'kib yashadi. Shunda unga ¹²qilgan tavbasi chora bo'ldi. Raxmat bog'idan yana shamol esdi, mehnat va

¹¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. Lison ut-tayr. Majolis ul-nafois. Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 yil, 142 bet.

mashaqqatdan omonlik topdi. Tavbasi qabul qilindi va hurmatli zot sharafiga muyassar bo'ldi. Sen ham tavba qil, o'zi kechiradi, murodingga etasan"). Asarda Odam Ato haqidagi diniy-tasavvufiy qarashlar badiiy talqin etilgan. Unda Odam odamzod otasi (Abulbasha) qilib yaratilishi, jannatga kiritilishi, jannatda gunoh qilishi, mashaqqat chekishi, tinimsiz yig'lashi, tavba qilib yana qaytadan aziz bo'lishi tasvirlanadi. Bundan odam ham gunoh qilishi mumkin, biroq tavba qilib, kechirim so'rash insoniylik belgisi degan xulosa chiqariladi. O'zbek mumtoz she'riyatida Odam obrazi tasvirlangan o'rinlarda mana shu syujetga ishora etiladi. Bu fabula Alisher Navoiy she'riyatida ham lirik qahramon kechinmalarida rang-barang ramziy-majoziy ma'nolarni yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytilganda, Alisher Navoiy she'riyatida ilohiy va adabiy obrazlar badiiy talqini umumilliy va bashariy mavzu sifatida keng o'rin egallagan. Bu ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan global muammolar, islomning muqaddas qadriyatlari, davr badiiy ijodining ezgu va insonparvar tuyg'ulari ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy she'riyatida ilohiy obrazlar talqini islom madaniyatining umuminsoniy qarashlari badiiy ifodasi sifatida dolzarbdir, shoir she'riyatining olamshumullik darajasi va poetik olami jozibadorligi bu xil obrazlar talqinida yaqqol namoyon bo'ladi. Mutafakkir she'riyati obrazlar dunyosi rang-barang, mavzu va mazmun ifodalari benihoya ko'lami keng. Unda tarixiy-afsonaviy, adabiy siymolar obrazlari talqini masalasi alohida bir adabiy hodisa sifatida ko'rinadi. Shoir she'riyatida ilohiy siymolar badiiy tavsifi eng ko'p murojaat etiladigan obraz-timsollardan hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodida bunday siymolar obrazlari mumtoz she'riy kechinma va lirik ifodalari uchun o'ziga xos ilhom manbai sanaladi. Shoir she'riyatida ilohiy obrazlarning badiiy-irfoniy, adabiy-estetik, g'oyaviy-falsafiy fikrlarni ifodalash ufqlari nihoyatda kengligini ko'rsadi.